

**TIBBIYOT HAMDA FAN VA TEXNALOGIYALAR
TARAQQIYOTINING DOLZARB MUAMMOLARI**

*Alfraganus Universiteti
Azimjanova Feruza Abdurashidovna
Phd mustaqil izlanuvchi,
Murodullayeva Muxlisa Farxod qizi
Alfraganus University bakalavr
“Stomatologiya “ yo ‘nalishi 1-kurs
talabasi.
Toshkent, O’zbekiston*

Annotasiya: Maqolada eng dolzarb sohalar hisoblangan tibbiyot hamda fan va texnalogiyalar rivojlanish jarayonidagi bir qancha muammolar e’tirof etiladi va bu vaziyatni bartaraf etish maqsadida turli yechim va takliflar ko‘rib chiqiladi. Ushbu sohalarni o‘z ichiga olgan ma’lum mavzulardagi muammoli jihatlarni (masalan, yurak-qon tomir kasalliklari bo‘yicha) hal qilish uchun O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining tashabbuskor harakatlari tahlil etiladi.

Kalit so‘zlar: sog‘liqni saqlash, tibbiy yordam, axbarot texnalogiyalari, telemeditsina, stomatologiya, kardiologiya, transplantatsiya.

**THE URGENT ISSUES IN THE DEVELOPMENT OF MEDICINE,
SCIENCE AND TECHNOLOGY**

Azimjanova Feruza Abdurashidovna
Phd of searcher,
Murodullayeva Muxlisa Faxod qizi
Bachelor’s student at the Faculty of
Dentistry in the first course,
Alfraganus University
Tashkent, Uzbekistan

Annotation: The article discusses several issues in the development of medicine, science and technology, which are considered to be the most pressing areas. Various solutions and proposals are examined to address these situations. The analysis includes the initiatives taken by the President of the Republic of Uzbekistan to resolve problematic aspects (such as cardiovascular diseases) in specific topics within these fields.

Keywords: healthcare, medical assistance, information technologies, telemedicine, dentistry, cardiology, transplantation.

**НАСУЩНЫЕ ПРОБЛЕМЫ РАЗВИТИЯ МЕДИЦИНЫ,
НАУКИ И ТЕХНОЛОГИЙ**

Муродуллаева Мухлиса

Фарход кизи Альфраганус

университети, бакалавр

Специальность Стоматология

студент Ташкент, Узбекистан

Аннотация: В статье рассматриваются несколько проблем, связанных с развитием медицины, а также науки и технологий, которые являются наиболее актуальными областями. Для преодоления данной ситуации рассматриваются различные решения и предложения. Анализируются инициативные действия Президента Республики Узбекистан, направленные на решение проблемных аспектов (например, сердечно-сосудистые заболевания) определенных тем.

Ключевые слова: здравоохранение, медицинская помощь, информационные технологии, телемедицина, стоматология, кардиология, трансплантация.

Tibbiyat, fan va texnalogiyalar hozirgi zamonaviy jamiyatning eng asosiy mavzularidan biri hisoblanadi. Ushbu sohalarning rivojlanishi nafaqat xalq sog‘lig‘ini ta’minlashga, balki ijtimoiy farovonlikni oshirishga ham ulkan hissa qo‘sadi. Biroq, ushbu jabhalarning taraqqiyotida dolzarb muammolar mavjud. Asosan, sog‘liqni saqlash tizimidagi tengsizliklar va uzoq hududlardagi aholining tibbiy xizmatdan foydalana olmasligi tibbiyotning jadal rivojlanishiga to‘sinqilik qilmoqda, shu bilan birga tibbiyotda stomatologiya, kardiologiyada va transplantologiyada bartaraf etish kerak bo‘lgan bir qancha muammoli vaziyatlar bor. Bundan tashqari, sun’iy intellekt va telemeditsina kabi innovatsiyalar bemorlarni davolash jarayonini sezilarli darajada o‘zgartirmoqda. Ammo bu yangi texnalogiyalardan foydalanish uchun kadrlar, resurslar va bilimlar yetishmasligi muammosi ham mavjud. Ushbu maqolada tibbiyot hamda fan va texnalogiyalar rivojlanishidagi dolzarb muammolarni hamda ularni bartaraf etish uchun taklif etiladigan yechimlarni ko‘rib chiqadi.

Kam ta’minlangan va yuqori tabaqali aholi vakillariga bir xil tibbiy yordam ko‘rsatilmayotgani bugungi kundagi eng og‘riqli vaziyat. Quyi tabaqali insonlar bemalol xususiy klinikalarda yaxshi mutaxasis nazoratida davolanishlari mumkin, ammo qishloq aholisi yaxshi, malakali shifokor va barcha sharoitlarga ega klinikada davolanishga moddiy jihatdan imkoniyati yetmaydi. Ayniqsa, yaxshi shifoxonalarning bari viloyat markazlarida yoki poytaxtda barpo etilgan va bu markazlardagi shifoxonalarda muolaja olish qishloq aholisiga anchagina qiyinchilik tug‘diradi. Telemeditsinani rivojlantirish bu muammoning eng muqobil yechim bo‘la oladi, ya’ni

tajribali mutaxasislar axborot texnalogiyalari yordamida bemor bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘lanib bemor ahvolini yuqori sifatli monitor qilishi mumkin va bu jarayon geografik jihatdan chekka hududlarda yashaydigan, nogironligi bo‘lgan aholi vakillari uchun eng qulay tanlov [5.6].

Stomatologiyadagi eng muammoli vaziyat bu zamonaviy uskunalar yetarli emasligi va bemorlarning stomatolog qabuliga borishiga oid qo‘rquv. Ko‘plab stomatologik klinikalar zamonaviy uskunalar va sifatli stomatologik materiallar bilan ta‘minlanmagan, bu esa davolash sifatini pasayishiga olib keladi. Bemorlar stomatologik muolajalarni og‘riqli ekanligidan va xavfli kasallikkarni (SPIT, OITS, Gepatit b) yuqtirib olishdan qo‘rqishadi. Shifokor stomatologiya amaliyotida bemorni jarayon anestiziya vositalari orqali og‘riqsiz kechishiga ishontirishi, u bilan ochiq muloqotda bo‘lib, muolajadan oldin amalga oshiriladigan jarayon hamda individual steril asboblardan foydalanish haqida bat afsil ma’lumot berishi kerak [1].

Kardiologiya markazining ma’lum filiallarida: Buxoro, Farg‘ona va Toshkent viloyatlarida 1,5 ming nafar bemor murojaat qilgan, buning asosiy sababi esa stendlash amaliyoti uchun angiografiya uskunasi bo‘lmaganidir. Bu muammoni oldini olish maqsadida Prezident Shavkat Mirziyoyev Miromonovich tashabbus ko‘rsatdilar: 40 yoshdan oshgan aholi oilaviy poliklinika va tibbiy brigadalar orqali yiliga bir marta manzilli skiringdan o‘tkazilishi, yurak-qon tomir kasallikkari aniqlangan aholining yagona elektron reyestri yuritilishi, tuman laboratoriyalari koagulometr va zarur reaktivlar bilan ta‘minlanishi kabi jarayonlar amalga oshirilishi rejallashtirildi [2.3].

Tibbiyotning eng murakkab, o‘ta ma’sulyatli va ayni paytda muammoli yo‘nalishlaridan biri bu transplantalogiya. Transplantatsiyani rad etish muammolari ham bo‘lib turadi, ya’ni tanada transplantatsiya qilingan organga qarshi immunitet hosil bo‘lib, amaliyot muvaffaqiyatsizlikka uchrashi mumkin. Buni xavfini kamaytirish maqsadida donor va qabul qiluvchini eng mos kelishi steriotiplanadi va immunosuppressant dorilar qo‘llanadi [4].

Hozirgi kunda fan va texnalogiyalar taraqqiyotidagi dolzarb muammolar va ularga yechimlar: innovatsion texnalogiyalarni qo‘llashda kadrlar va yetarlicha bilimko‘nikma yetishmasligi va bu jarayon ta‘lim tizimini yangilashga zaruratini tug‘diradi, shu bilan birga texnalogiyani rivojlantirish uchun resurslarga ehtiyoj yuqori, insonlar resurslarni samarali boshqarishni va ishlab chiqarish strategiyalarini tatbiq etishni talab qiladi. Shu bilan birga, telemeditsina tibbiyotdagi eng muhim axbarot texnalogiyasi hisoblanadi, ammo mamlakatimizda bu texnalogiya keng qo‘llanilmaydi. Klinikada bemorlar hisobotini yuritish va belgilangan davolashni to‘g‘riligini nazorat qilish uchun yordam beradigan eng zarur texnalogiya – telemeditsina, uni targ‘ib qilish va foydalanishga shart-sharoitlar yaratish tibbiyotning jadal rivojlanishiga hissa qo‘shadi [5].

Xulosa qilib aytish mumkinki, ayni vaqtida sog‘liqni saqlash tizimidagi tengsizliklar va uzoq hududlardagi aholini tibbiy yordam olishidagi qiyinchiliklar tibbiyat rivojlanish darajasini pasaytirmoqda va ma’lumki, stomatologiya, kardiologiya va transplantatsiya kabi yo‘nalishlarda ham bartaraf etilishi zarur bo‘lgan muammolar mavjud. Fan va texnalogiya taraqqiyotiga nazar tashlaydigan bo‘lsak, rivojlanishga hissa qo‘sish uchun kadrlar, resurslar va bilim yetishmasligini ko‘rish mumkin. Ammo yuqorida keltirilgan muammoli vaziyatlarni yaxshilash maqsadida ko‘plab sa’y harakatlar olib borilmoqda.

Foydalilanilgan adabiyotlar:

1. Journal of Uzbekistan’s Development and Research. January 01.2025 ;
2. <https://kun.uz/93472> ;
3. <https://xabar.uz/uz/jamiyat/muammo-kop> ;
4. <https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Transplantatsiya> ;
5. <https://www.intereuroconf.com/index.php/DESH/article/download/4936/3654/3651> ;
6. <https://www.standart.uz/ru/news/view?id=746> .